XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-oktabr VI-90-156-8-0-K/24 Surxondaryo viloyati

Qumqo‘rg‘on tumanidagi Chorvador, Oltin kamar, Karvon yo‘li, Oydin ko‘l, Zamin va Navro‘z aholi punktlari nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 5-apreldagi 05-19-01-753-sonli ekspert xulosasini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 5-apreldagi 05-19-01-753-sonli ekspert xulosasi ma’qullansin.

2. Qumqo‘rg‘on tumanida nomlari o‘zgartiriladigan aholi punktlarining ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Statistika boshqarmasi (B.Choriyev) nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining elektron bazasini shakllantirish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xojaligi bosh boshqarmasi (P.Tangriyev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida belgilangan tartibda va muddatda o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari tomonidan mahallalar, ko‘chalar va aholi punktlari nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlariga belgilangan tartibda takliflar kiritib borsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan yuqorida qayd etilgan muddatlarda va **har chorak yakunida** xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

7. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur masala yuzasidan amalga oshirilgan

ishlarni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalliy gazetalar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2022-yil 26-sentabrdagi VI-58-204-8-0-K122-son qarori ilovasining 2-7-pozitsiyalari chiqarib tashlansin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 16-oktabrdagi
VI-90-156-8-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qumqo‘rg‘on tumanida nomlari o‘zgartiriladigan aholi punktlarining RO‘YXATI

T/r	Geografik obyekt turi	Joylashgan joyi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning o‘zgartirilgan nomi
1.	Aholi punkti	“Oqqapchig‘ay” QFY “Tebat” MFY	Chorvador	Ouzikent
2.	Aholi punkti	“Ketmon” QFY (“Ko‘ganli” MFY)	Oltin kamar	Egriqoq
3.	Aholi punkti	“Ketmon” QFY (“Ko‘ganli” MFY)	Karvon yo‘li	Lupang
4.	Aholi punkti	“Ketmon” QFY (“Ko‘ganli” MFY)	Oydin ko‘l	Maxat
5.	Aholi punkti	“Arslonboyli” QFY (“Achamayli” MFY)	Zamin	Kochay
6.	Aholi punkti	“Arslonboyli” QFY (“Achamayli” MFY)	Navro‘z	Qaychili